



**O'ZBEK TILIDA TARZ MA'NOLI
LEKSEMALAR VA ULARNING GAP
TARKIBIDA IFODALANISHI**

M.N.Jo'rayeva

Xalqaro innovatsion universiteti o'qituvchisi

**LEXEMES WITH THE MEANING OF MANNER
IN THE UZBEK LANGUAGE AND THEIR
EXPRESSION IN THE SENTENCE**

STRUCTURE

Zhuraeva M.N.

Lecturer of the International Innovation University

**ЛЕКСЕМЫ СО ЗНАЧЕНИЕМ МАНЕРЫ В
УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ И ИХ ВЫРАЖЕНИЕ В
СТРУКТУРЕ ПРЕДЛОЖЕНИЯ**

Жураева М.Н.

*Преподаватель Международного инновационного
университета*



E-mail: mjurayeva908@gmail.com

Orcid: 0009-0006-6255-3008

Doi:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15283482>

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tilshunosligidagi tarz-holat tushunchasining o'ziga xos jihatlari, ayni paytgacha amalga oshirilgan ishlarda tarz-holat tushunchasiga, asosan, muayyan turkum – ravish, qisman sifatning kategorial shakli sifatida qaralishi atroflicha o'rganib chiqilgan. O'zbek tilida tarz tushunchasi til sathlarida turli vositalar orqali ifodalanishi va yaxlit funksional-semantik maydonni tashkil etishi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: funksional-semantik, tarz-holat, maydon uzvlari, sathlararo munosabat, analitik shakllar, geterogen shakllar.

Аннотация. В статье подробно рассматриваются специфические аспекты понятия поведения-состояния в узбекском языкознании, а также тот факт, что в предыдущих работах понятие поведения-состояния рассматривалось, в основном, как определенная категория - наречие, и отчасти как категориальная форма прилагательного. Было показано, что понятие манеры в узбекском языке выражается различными средствами на языковых уровнях и образует целостное функционально-семантическое поле.

Ключевые слова: функционально-семантические, манера-состояние, члены поля, межуровневые отношения, аналитические формы, гетерогенные формы.

Abstract. The article thoroughly examines the specific aspects of the concept of manner-state in Uzbek linguistics, and the fact that in previous works, the concept of manner-state is mainly considered as a certain category - adverb, and partially as a categorical form of adjective. It has been shown that the concept of manner in the Uzbek language is expressed through various means at the levels of language and forms an integral functional-semantic field.

Keywords: functional-semantic, manner-state, field members, inter-level relations, analytical forms, heterogeneous forms.



KIRISH VA DOLZARBLIGI.

O‘zbek tilida tarz tushunchasi til sathlarida turli vositalar orqali ifodalaniladi. Shu bilan birga u yaxlit funksional-semantik maydonni ham tashkil qiladi. Tilshunosligimizda tarz tushunchasining namoyon bo‘lishi, uni ifoda etuvchi vositalar, holatni anglatish hodisasining sathlararo xususiyati, tarz tushunchasining leksema semantikasidagi funksional ma’nolar bilan bog‘liq holda namoyon bo‘lishi haligacha maxsus o‘rganilmagan.

Turli vositalar orqali xilma-xil ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladigan tarz hodisasi yaxlit bir funksional-semantik maydon sifatida o‘rganish nihoyasiga yetmagan. Tarz ma’nosini kategorial birlikdan kengroq doirada qarash, funksional-semantik maydon sifatida tahlil etish va mazkur maydon uzvlarini belgilab olish, vositalarini aniqlash maqolaning asosiy vazifasi sanaladi.

Grammatik ma’noni ifodalovchi ko‘plab vositalar grammatik kategoriya sifatida qaralgani sababli juda ko‘pgina erkin sintaktik birikmalar ham grammatik kategoriyaga nisbat beriladi va natijada darajaning morfologik ifodasi bilan boshqa hodisalar qorishtiriladi. Aslida o‘zbek tilida mazkur ma’nolar turli sathlarda turlicha vositalar bilan ifodalaniladi va ular bitta funksional-semantik maydonni tashkil etadi. Kesimlik, bo‘lishli-bo‘lishsizlik, harakat tarzi kabi geterogen shakllar, xususan, tarz ma’nosini hosil qiluvchi shakllar mazkur nuqtai nazardan hali o‘rganilmagan.

METODLAR VA O‘RGANILISH DARAJASI.

O‘zbek tilida tarz ma’noli birliklar, xususan, holat ravishlari S.Fuzailov, ko‘makchi fe‘lli qo‘shilmalar A.Hojiyev, A.G‘ulomov, holat fe‘llari R.Rasulov, ravish hollari M.Mo‘minova, A.Po‘latov, holat ma’nosini ifodalovchi juft va takroriy so‘zlar N.Abdurahmonov, holat sifatleri, Sh.Rahmatullayev, M.Sodiqova, A.N.Zufarov, Z.M.Ma’rufovlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan.

O‘zbek tilida tarz ma’nosining ifodalanishi holat bildiruvchi leksemalar – ravish, sifat, fe‘llar, ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shilmasi, harakat tarzi kategoriyasi, ravish (tarz) holi, ravish ergash gapli qo‘shma gap sifatida turli tomondan alohida-alohida o‘rganilgan. Bu masala, ayniqsa, A.Nurmonov, H.Ne‘matov, B.Mengliyev va ularning izdoshlari B. Bahridinova, O.Shukurov, Sh.Rahmatullayeva tadqiqotlarida yoritilgan.

TADQIQOTNING NATIJALARI.

Tarz ma’noli leksemalar tilda mustahkam va o‘ziga xos o‘ringa ega. Ba’zi o‘rinlarda tarz leksemasi o‘rniga sinonim sifatida “usul” leksemasi qo‘llangan o‘rinlarga ham duch kelamiz. Masalan, *baytma-bayt (qay tarzda (usulda)) aytdi*. Tarz ma’no anglatuvchi leksemalarni yaxlit tizimga birlashtirib uni maydon ostida



o'rganish bugunda yangi va muhim mavzu sanaladi. Bunday leksemalar: harakat tarzi, analitik shakllar, tarz ravishlari, harakatning kuchli-kuchsiz darajasini hosil qiluvchi vositalar, yuklama, ohang, taqlid so'z va boshqalar tarkibida turli darajada uchrashi uni maydon ostida o'rganish muhimligini anglatadi.

Ba'zi o'rinlarda ko'makchilar bilan ifodalangan mavhum otlar ham tarz ma'nosini ifodalab kelishi mumkin. Masalan, *hayajon bilan (qay tarzda) gapirmoq*. Sifat so'z turkumi ham harakatning belgisini bildirgan o'rinlarda tarz ma'nosini ifodalab kela oladi. Masalan, *ma'noli (qay tarzda) gapirmoq, chiroyli (qay tarzda) yozmoq* kabi.

O'zbek tilida ravish yasovchi maxsus affikslar bor. Shunday affikslardan egalik ham ravishlarning o'ziga xos morfologik belgisi hisoblanadi: *do'stona, harbiychasiga, yovuzlarcha, oylab* kabi.

Ravishlarning sintaktik vazifasi gapda hol bo'lib kelishidir: *Bu tuproqshunos olimlar bilan O'ktam rayon markazida tasodifan uchrashgan edi. (O.) Hayajon bilan cholning qo'lini qisdi va o'zga kolxozchilar bilan birodarona xayrlashdi. (O.)*

Holat, tarz, ravish, vaziyat otlari o'zaro sinonim bo'lib, lingvistik termin sifatida ular aralash holda ishlatiladi.

Holat ravishlari ish-harakatning qay tarzda bajarilishini ko'rsatadi va *qanday? qanday qilib? qay tarzda?* so'roqlariga javob bo'ladi: *tez, sekin, piyoda, yayov, bekorga, to'satdan, qo'qqisdan, astoydil, do'stona, qahramonlarcha, ochiqdan-ochiq, yuzma-yuz, zo'rg'a* kabilar. Masalan, *Moskvadan yo'l olgan poyezd Sharqqa tomon tobora yaqinlashib kelmoqda. (Gazetadan) Vodiylarni yayaov kezganda, Bir ajib hiz bore di manda. (H.O)*

Holat ravishi, aytilganidek, harakatning bajarilish usulini, tarzini bildiradi. Shu boisdan ham u tarz-tus ravishi deb ham yuritiladi: *bexosdan, qo'qqisdan, astoydil, majburan, qavatma-qavat, mardlarcha, yigitlarcha.*

Holat ravishlari harakatning qay tarzda bajarilishini, uni boshqa predmet, hodisaga va protseslarga o'xshatib, qiyos etib ham anglatadi: *Lolaning katta-katta ko'zlari o'tday chaqnaydi. Gulchehra atlas ko'ylagini olovday yondirib, daraxtlar orasida go'yo o'yinga tushmoqchiday, yengil, nozik yo'rg'alar... (O)* Holat ravishi gapda: *1. Ravish xoli vazifasida keladi: Ishni yigitchasiga tashkil qilamiz. (O.) Kunduzlari quyosh saratondagiday qizdirib turdi. (M.I)* 2. Gapning ot bilan ifodalangan bo'laklariga bog'lanib, aniqlovchi vazifasida keladi: *Salqin shabadas kelib olqishlar. Bizning g'olibona bayrog'imizni. (As.M.)* 3. Gapning kesimi vazifasida keladi: *Kuch yetmaganligi to'g'risida og'iz ko'pirtirish oson. (Sh.R.)*

Holat ravishi harakat-holatning qay tarzda ro'y berishi, qanday usul bilan bajarilishi kabi ma'nolarni bildiradi: *bexosdan, tez(da), qo'qisdan, sekin, astoydil,*



bekorga, piyoda, ketma-ket, arang, darhol, zimdan, bazur, qiyg'os, zo'rg'a, birdan, boshqacha kabilar. Holat ravishlari gapda, asosan, vaziyat holi vazifasida keladi: *Zulfiya tabiat, turmush sinoviga mardonovor bardosh berdi*. Shuningdek, holat ravishi otga bog'lanib aniqlovchi, kesim bo'lib ham kelishi mumkin: *Jamiyat uchun yangichicha ilm kerak. Auditoriya jimjit, hamma unga qarar edi. (P.Q.)*

Miqdor-daraja ravishlarida ham harakatning yoki belgining miqdorini, narsaning noaniq miqdorini ifodalash orqali tarz ottentkasi mavjud bo'ladi. Miqdor-daraja ravishlari: *ko'p, oz, kam, bir oz, sal, picha, qittak, xiyol* kabi harakatning miqdoriy belgisini ifodalovchi hamda *juda, g'oyat, nihoyatda, har qancha, obdan, ozmuncha, also, sira, hech* kabi harakat belgisini darajalovchi ravishlardan tashkil topadi.

Miqdor ravishlarining tarz ma'nosi bilan aloqadorligi harakat belgisini kuchaytirish va susaytirishi bilan tarz ma'nosi bilan bog'lanadi. Ma'lumki, ravishlar harakat bildiruvchi so'zlarga bog'lanadi. Miqdor ravishlari harakatning darajasini ko'rsatadi. Miqdor ravishlari ikki guruhi farqlanadi:

Harakat belgisini kuchaytiruvchi ravishlar: *arang, zo'rg'a, zo'rbazo'r, xiyol, sal, sal-pal, chor-nochor* kabilar.

Miqdor-daraja ravishlari gapda ko'pincha hol, ba'zan otga bog'lanib sifatlovchi aniqlovchi vazifasida keladi: *Ko'p gap quloqqa yoqmas. O'rmonjon akamning bir gapi sira-sira esimdan chiqmaydi. (A.Q.)* Otlashganda esa to'ldiruvchi va qaratqich aniqlovchi vazifasini bajaradi: *Ko'pdan quyon qochib qutulmas*. Ravishning bu turi kesim vazifasida kelishi ham mumkin: *Bahorda dehqon uchun vaqt oz, biroq ish ko'p*.

Sifat singari ravishlar ham turli darajaga ega bo'lishi yoki darajalanmasligi mumkin. Masalan, *tezroq chopmoq, juda sekin yurmoq* kabilarda harakatning tezlik darajasi *har xil, lekin hamisha, arang, zo'rg'a* kabilar bildirgan belgi darajalanmaydi.

Ravish bildirgan belgi darajasining ortiq-kamligi xuddi sifatlardagi kabi ifodalanadi. Masalan, belgining ortiq darajasi maxsus so'zlar yordamida ifodalanadi: *juda tez uchadi, nihoyatda sekin*.

Belgining ozaytirma darajasi -roq, -gina affikslari yordamida ifodalanadi: *sekinroq gapir, keyinroq keldi, hozirgina keldim, salgina kechikding, ozgina oldi* kabi.

Ravishlarda belgining kuchli darajasi takroriy shakl vositasida ifodalanishi ham mumkin:

a) So'zning to'liq takroro orqali: *juda-juda, tez-tez, zo'rg'a-zo'rg'a, zinhorzinhor, hali-hali, sira-sira, endi-endi*;



b) qisqa takror orqali: *kuppa-kunduzi, to'ppa-to'g'ri, bab-baravar, chippachin.*

Holat ravishlarida tarz ma'nosi darajalanib kelishi ham mumkin. Misollarga nazar tashlaymiz:

O'rmonjon tasodifan kelib qoldi. (A.Q.)

Azimboyvachcha ko'zlarini ayyorcha qisib, ta'zim qildi. (S.Ahm.)

Mashina ravon va tez yurmoqda. (As.M.)

Tongi shabada asta esar edi.

Bugun havo iliq, derazalarni lang ochib qo'ysa ham bo'ladi. (Ch)

Biz kechgacha birga dars tayyorladik.

Qo'llashing, yetaklang, olg'a intiling, baravar marraga yetish e'tibor. (G'.G')

Ot to'g'ri ketayotgan edi. (M.Ism.)

Ra'no ohistagina Anvarning yoniga kelib, supaga suyandi. (A.Q.)

Ko'rib o'tilganlardan ma'lum bo'ladiki, bexosdan, astoydil, majburan, qavatma-qavat, mardlarcha, yigitlarcha kabi holat ravishlari tarz funksional-semantik maydoni tushunchasining asosiy vositasi bo'lib, maydon markazini tashkil qiladi. Chunki, bu leksemalar tarz ma'nosini ifodalash uchun xoslangan va unda holat asosini tashkil etuvchi sema yaqqol sezilib turadi.

Tarz ma'noli leksik birliklardan yana biri sifatida holat bildiruvchi sifatlarni keltirish mumkin. O'zbek tilida sifatlar karakter-holat bildirishiga ko'ra ko'pincha bir lug'aviy-ma'noviy guruhga ajratiladi. Ammo, ko'pgina adabiyotlar, xususan, "O'zbek tili grammatikasi"da holat sifatlari alohida guruh sifatida berilib, uning ichki ma'noviy turlari ham farqlanadi:

Holat bildiruvchi sifatlar. Predmet, hodisaga, inson va hayvonga xos holat yoki vaziyat turli sifatlar orqali ifodalanishi mumkin:

1. Tabiiy holat belgilari:

a) ijobiy ma'noda: *go'zal, ko'hlik, chiroyli, suluv, latif, qomatdor* va b.;

b) nuqsoniy belgilar: *cho'loq, mayib, maymoq, bukir, cho'tir, soqov, xunuk, g'ilay, kar, pes, ko'r, qiyshiq* va b.

Qayd etilgan sifatlarning ayrimlari hayvon va predmetlarning belgisi uchun ham qo'llanilaverishi mumkin: *O'sha mayib turna cholning qo'lida shifo topib yana o'z karvoniga qo'shilganini bilarmikin (Said Ahmad).*

2. Jismoniy yoki fizik holatlarni ifodalovchi sifatlar: *bardam, baquvvat, tetik, yosh, keksa, qari, ojiz, zaif* va b. Bunday sifatlar predmet belgilari uchun ham qo'llana oladi: *Oqsoqol hovliga, keksa tut shoxlari engashib turgan tunuka tomga suqlanib birma-bir qarab chiqdi. (Said Ahmad). Nayda chalingan ojiz navo esa, ...bir cho'pon boladay chinqirib nola qilar edi. (A.Muxtor)*



3. Ruhiy holatni ifodalovchi sifatlar: *xursand, xafa, jinni, sog', sergak, hushyor, g'azabnok, darg'azab, tajang, mayus, g'amgin, alamdiyda, alamzada* va b.

4. Kishining hayotiy holatini, ahvolini ifodalovchi sifatlar: *boy, badavlat, kambag'al, qashshoq, yo'qsil, gado, yetim, mushfiq, bechora, musofir* va b.

5. Predmetning harorat belgisini ifodalovchi sifatlar: *issiq, sovuq, iliq, salqin, ilmiliq (iliq-miliq)* kabi.

6. Tozalik, ifloslik holatlarini ifodalovchi sifatlar: *toza, ozoda, sof, musaffo, saxtiyon, kir, isqirt, irkit* va b.

7. Predmetning eskilik, yangilik holatlarini ifodalovchi sifatlar: *yangi, eski, churuk, uvada, juldur* va b.

8. Predmetning pishgan yoki xomligini ifodalovchi sifatlar: *xom, g'o'r, dumbul, pishgan, pishiq* va b.

9. Predmetning ho'l yoki quruqlik holatini ifodalovchi sifatlar: *ho'l, nam* kabi.

Harakat tarzi shakllari esa mavjud manbalarga ko'ra 27 ta fe'ldan iborat bo'lib, ularning yetakchi fe'lga qo'shilishi -a/y va -b/ib ravishdosh shakllari asosida yuz beradi. Demak, analitik-sintetik shakl bo'lgan bu lisoniy mohiyat tabiatan murakkab bo'lib, mazkur fe'llarning mustaqil holda ham qo'llanila olishi, umuman, o'zbek tili sof ko'makchi fe'l vazifasida keluvchi so'zlarga ega emasligi uni yanada murakkablashtiradi. Zero, tadqiqotchilarning bu shakllarda turli-tuman, ba'zan bir-biriga zid ma'nolarni qayd qilishi bu murakkablik sabablarini mazkur fe'lning o'zidangina emas, balki yetakchi fe'l, ravishdosh shakllari va ko'makchi fe'lning mustaqil qo'llanilishidagi lug'aviy ma'nosi tajallilarining qorishgan holda namoyon bo'lishidan qidirmoq zarurligini zarur qilib qo'yadi. Masalan, Azim Hojiyev tur ko'makchi fe'lining ma'no xususiyatlari haqida gapirar ekan, shunday yozadi: yetakchi fe'ldagi harakatning ma'lum belgili vaqt ichida, biror harakat yoki hodisa amalga oshguncha bajarish – "vaqtincha" degan ma'noni bildiradi. Bunday hollarda kontekstda yetakchi fe'ldagi harakatning bajarilish muddatini (qancha vaqtgacha davom etishini) ko'rsatuvchi so'z yoki so'zlar birikmasi qatnashishi ham mumkin: - *To shahardan muallim kelguncha, bo'lis o'zlari o'qitib turadilar*". Agar gapning birinchi qismi olib tashlansa, ikkinchi qismidan "vaqtincha" ma'nosini anglashilmasligi mumkin: "*Bo'lis o'zlari o'qitib turadilar*" Endi davomlilik anglashiladi-yu, uning "vaqtinchalik" ma'no ottenkasi yo'qoladi. Bunday sintaktik hodisalar tajallisi ko'makchi fe'l ma'nosini murakkablashtirganligi ayon bo'ladi. Buni muallifning o'zi ham e'tirof etadi: "...tur ko'makchi fe'li ayrim fe'llarga birikkanda, yetakchi fe'ldagi harakatning nutq momentida bo'layotganligi, takrorlanib davom etayotganligi ma'nosi faqat kontekstda reallashadi".



XULOSALAR.

Demak, aytilganlardan xulosa qilish mumkinki, harakat tarzi shakllari turkiy tillardagi fe'l lug'aviy ma'nolarini modifikatsiya qiluvchi vositalar sifatida fe'llarning birikuvchanlik-biriktiruvchanlik imkoniyatlariga ham ta'sir qiladi. Leksemalarning valentlik imkoniyatlariga miqdor va sifat nuqtai-nazaridan ta'sir qiladi, kengaytiradi yoki toraytiradi.

Harakat tarzi shakllari tarkibidagi ko'makchi fe'llarning lug'aviy ma'noni yo'qotish darajasi ularning yetakchi fe'l lug'aviy ma'nosiga tobelik darajasini ham ko'rsatadi. Ko'makchi fe'l lug'aviy ma'nosini qanchalik ko'p yo'qotgan bo'lsa, uning yetakchi fe'l lug'aviy ma'nosiga tobeligi shu darajada kuchayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M. Iskandarova O'zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o'rganish (shaxs mikromaydoni) filol.fan. dokt. ...diss. avtoref, -Toshkent.1999.
2. F.S.Safarov O'zbek tilida son-miqdor mikromaydoni va uning lisoniy -nutqiy xususiyati. Filol. fan. nomzodi. ...diss. avtoref. – Samarqand, 2004.
3. A.Rasulova. O'zbek tilining shart va to'siqsizlik maydoni. Filol. fan. nomzodi. ...diss avtoref, - Farg'ona. 2018.
4. L.Elmuurodova O'zbek tilida daraja funksional-semantik maydoni. Filol. fan. nomzodi. ... diss avtoref, - Toshkent, 2011
5. M.Mengliyeva. Ingliz va o'zbek tillarida fe'l aspektual ma'nolarining ifodalanishi va tipologiyasi. Filol. Fan..dok (DSc) diss – Toshkent, 2024.